


№ 03-01/186
18.07.2022й.



**Вилоят ҳокимлигида ўтказилган йиғилиш
БАЁНИ**

- Раислик қилди:** Н.Турсунов – Навоий вилояти ҳокими в.б.
- Иштирок этди:** Б.Бобомуродов - вилоят ҳокимининг ўринбосари;
М.Эгамқулов – Навоий шаҳар ҳокими;
Ф.Умаров – Кармана тумани ҳокими;
У.Файзиев – Қизилтепа тумани ҳокими;
Р.Рўзиев – Конимех тумани ҳокими;
А.Ўроқов – Навбахор тумани ҳокими;
А.Файзиев – Нурота тумани ҳокими;
С.Низомов – Хатирчи тумани ҳокими;
Ш.Набиев – Маҳалла ва нуронийларни қўллаб-қувватлаш бошқармаси бошлиғи;
Д.Очилов – Молия бош бошқармаси бошлиғи;
А.Ниёзов – Қурилиш бош бошқармаси бошлиғи;
Шаҳар ва туман ҳокимлари, масалага алоқадор корхона ва ташкилотлар раҳбарлари (*рўйхат бўйича*)

КУН ТАРТИБИ:

**Мақсадли дастурлардан ташқари қурилиши режалаштирилган
объектларнинг қурилиш-монтаж ишларини ташкил қилиш
чора-тадбирлари тўғрисида.**

(Турсунов, шаҳар ва туман ҳокимлари, Очилов,, Турсунов)

Йиғилишда, қуйидаги объектлар:

- Қизилтепа тумани “Ифтихор” МФЙ биносини мукамал таъмирлаш;
- Конимех тумани “Наврўз” МФЙ биносини реконструкция қилиш;
- Нурота тумани “Орасой” МФЙ биносини қуриш;
- Нурота тумани “Жарма” МФЙда Бурлибой қишлоғи “Қуламажарсой” сойи ўзанининг кечув йўлини таъмирлаш;

- Нурота тумани “Жарма” МФЙда суғориш (техник) сув таъминоти;
 - Навбаҳор тумани Юқори Бешробод МФЙдаги 34-сон мактабга 12x24 ўлчамдаги спорт зал қуриш;
 - Навбаҳор тумани Тиббиёт бирлашмасига қарашли туғруқхона биносини туманлараро перинатал биносига мослаштириш;
 - Навоий шаҳар “Ёшлик” спорт мажмуасига ўрнатилган 1 дона кислород станциясини вилоят Перинатал марказига ўрнатиш;
 - Кармана туман ҳокимлиги – “Обод қишлоқ” дастури доирасида “Гулшан” қишлоғидаги қурилиш-таъмирлаш ишлари амалга оширилаётган 4 та (1 та мактаб, 1 та бозча, 1 та тиббиёт ва 1 та маҳалла биноси) шунингдек, ижтимоий соҳа объектларига қуёш батареяларини ўрнатиш;
- шунингдек, вилоят ҳокимининг 2022 йил 20 апрелдаги 46-5-0-F/22-сонли фармойишига асосан:
- Навоий шаҳрида янги оилавий поликлиника биносини янгидан қуриш;
 - Навбаҳор тумани А.Навоий оилавий шифокорлик пунктини реконструкция қилиш;
 - Навбаҳор тумани “Наврўз” оилавий шифокорлик пунктини жорий таъмирлаш;
 - Хатирчи тумани Янги хаёт оилавий шифокорлик пунктини жорий таъмирлаш;
 - Қизилтепа тумани Реватун оилавий шифокорлик пунктини жорий таъмирлаш;
 - Қизилтепа тумани Ўзбекистон оилавий шифокорлик пунктини жорий таъмирлаш;
 - Конимех тумани Катаган оилавий шифокорлик пунктини мукамал таъмирлаш ишларини амалга ошириш борасида тегишли масъулларнинг ҳисоботлари тингланди.

Шу муносабат билан, қайд этилган объектларнинг лойиҳа ҳужжатларини тайёрлаш, танлов савдоларини ўтказиш, қурилиш-таъмирлаш ишларини ташкил қилиш, шу жараёнда сифат талабларини назорат қилиб бориш учун белгиланган тартибда қурилиш ишлари учун буюртмачи ва пудрат ташкилотларини тайинлаш лозимлиги қайд этилди.

Кун тартибидаги масала бўйича йиғилиш иштирокчиларининг фикр-мулоҳазаларини атрофлича муҳокама қилиб, йиғилиш

Қ А Р О Р Қ И Л А Д И:

1. Навоий шаҳар (М.Эгамқулов), Кармана (Ф.Умаров), Қизилтепа (У.Файзиев), Конимех (Р.Рўзиев), Нурота (А.Файзиев), Навбаҳор (А.Ўроқов)

туман ҳокимликлари томонидан мақсадли дастурлардан ташқари қурилиши режалаштирилган объектларнинг қурилиш-монтаж ишлари бўйича берган ҳисоботлари маълумот учун қабул қилинсин.

2. Қуйидагилар:

- Қизилтепа туман ҳокимлиги – Қизилтепа тумани “Ифтихор” МФЙ биносини мукаммал таъмирлаш;

- Конимех туман ҳокимлиги – Конимех тумани “Наврўз” МФЙ биносини реконструкция қилиш;

- Нурота туман ҳокимлиги – Нурота тумани “Орасой” МФЙ биносини қуриш, “Жарма” МФЙда Бурлибой қишлоғи “Қуламажарсой” сойи ўзанининг кечув йўлини таъмирлаш ва “Жарма” МФЙда сугориш (техник) сув таъминотини қуриш;

- Кармана туман ҳокимлиги – “Обод қишлоқ” дастури доирасида “Тулшан” қишлоғидаги қурилиш-таъмирлаш ишлари амалга оширилаётган 4 та (1 та мактаб, 1 та бозча, 1 та тиббиёт ва 1 та маҳалла биноси) ижтимоий соҳа объектларига қуёш батареяларини ўрнатиш ишларига;

- “Ягона буюртмачи хизмати” ИК – Навбахор тумани “Юқори Бешробод” МФЙдаги 34-сон мактабга 12x24 ўлчамдаги спорт зал қуриш, Навоий шаҳрида янги оилавий поликлиника биносини янгидан қуриш, Навбахор тумани А.Навоий оилавий шифокорлик пунктини реконструкция қилиш, Навоий шаҳар “Ёшлик” спорт мажмуасига ўрнатилган 1 дона кислород станциясини вилоят перинатал марказига ўрнатиш;

- Соғлиқни сақлаш бошқармаси - Навбахор туман Тиббиёт бирлашмасига қарашли туғруқхона биносини туманлараро перинатал биносига мослаштириш объектига, шунингдек,

- Навбахор тумани “Наврўз” оилавий шифокорлик пунктини жорий таъмирлаш;

- Хатирчи тумани Янги хаёт оилавий шифокорлик пунктини жорий таъмирлаш;

- Қизилтепа тумани Реватун оилавий шифокорлик пунктини жорий таъмирлаш;

- Қизилтепа тумани Ўзбекистон оилавий шифокорлик пунктини жорий таъмирлаш;

- Конимех тумани Катаган оилавий шифокорлик пунктини мукаммал таъмирлаш объектларига - буюртмачилар этиб тайинлансин.

3. Вилоят молия бош бошқармаси (Д.Очилов) объектларнинг қурилиш ишлари билан боғлиқ бўлган харажатларни молиялаштириш бўйича таклиф киритсин.

4. Навоий шаҳар (М.Эгамкулов), Кармана (Ф.Умаров), Қизилтепа (У.Файзиев), Конимех (Р.Рўзиев), Нурота (А.Файзиев), Навбахор (А.Ўроқов) туман ҳокимликларига белгиланган тартибда:

- қисқа муддатда масалага алоқадор ташкилотлар билан биргаликда талаб этиладиган лойиҳа олди ҳужжатларини расмийлаштириш;

- лойиҳа-смета ҳужжатларини тайёрлаш учун лойиҳа ташкилотларини аниқлаш, лойиҳа-смета ҳужжатлари ишлаб чиқиш ва экспертизадан ўтказишни ташкил қилиш;

- қурилиш-монтаж ишларини олиб бориш учун бош пудрат ташкилотларини аниқлаш ва қурилиш ишларини ташкил қилиш;

- белгиланган тартиб асосида аниқланадиган бош пудрат ташкилотлари билан биргаликда объектларнинг қурилиш-таъмирлаш ишларини ўз муддатида ҳамда сифатли ниҳоясига етказилишини таъминлаш вазифалари топширилсин.

5. Объектлардаги қурилиш-таъмирлаш ишларини сифатли олиб борилишини таъминлаш мақсадида қуйидагилар:

- лойиҳа ташкилотлари – муаллифлик назоратини;

- туман ҳокимликлари – техник назоратни;

- Қурилиш соҳасида ҳудудий назорат инспекцияси – давлат назоратини ўрнатсин.

6. Ушбу баённома қарорларининг бажарилишини назорат қилиш Навоий шаҳар, Кармана, Қизилтепа, Конимех, Нурота, Навбахор туманлари ҳокимлари зиммасига юклатилсин.

Баённи расмийлаштирди



Ш.Турсунов

(Б. Бобомуродов)

(Д. Очиров)

Таклиф киритди:

Навоий шаҳар

Кармана туман ҳокими

Қизилтепа туман ҳокими

Конимех туман ҳокими

Навбахор туман ҳокими

Нурота туман ҳокими

М.Эгамкулов

Ф.Умаров

У.Файзиев

Р.Рўзиев

А.Ўроқов

А.Файзиев



"TASDIQLANGAN"
Navoiy viloyati xokimligi
"Yagona Buyurtmachi Xizmati"
Injenering kompaniyasi direktori



A. Turdiev

" " 2022 yil.



"KELISHILDI"
Navoiy viloyati qurilish
bosh boshqarmasi boshlig'i

A. Niyozov

" " 2022 yil.

"KELISHILDI"
"MUQAYYAS GROUP" XK



Boborajabov A.

" " 2022 yil.

"KELISHILDI"
KONIMEX TUMAN
"NAVRO'Z" MFY RAISI
R. Salimov
2022 yil.



O'z hududidan chiqmagan holda "Navro'z" MFY
ma'muriy binosini rekonstruktsiya qilish
Ishchi loyihani ishlab chiqarish uchun

TEXNIK TOPSHIRIQ

Bosqich
RP (ishchi qoralama)

№	Asosiy ma'lumotlar va talablar	Asosiy ma'lumotlar va talablarning mazmuni.
1	Obyekt nomi.	“Navro’z” MFY ma’muriy binosini rekonstruksiya qilish
2	Obyekt manzili	Navoiy viloyati Konimex tumani
3	Loyihalashtirish uchun asos.	
4	Buyurtmachi	“Navoiy viloyati hokimligi huzuridagi Yagona buyurtmachi xizmati injiniring kompaniyasi”
5	Bosh loyihachi.	Tanlov savdolari natijalari bilan belgilanadi.
6	Bosh pudratchi qurilish tashkiloti	Tanlov savdolari natijalariga asosan
7	Qurilish va rekonstruksiya qilishning taxminiy muddatlari.	2022-yil.
8	Loyihalashtirish bosqichi	I bosqichli loyihalashtirish.
9	Qurilish turi	Rekonstruksiya qilish
10	Moliyalashtirish manbai.	Byudjet mablag‘lari.
11	Qurilish maydoni haqida ma'lumot va rejalashtirish cheklolari. Maxsus geologik va gidrogeologik sharoitlar (qurilish maydoni xarakteristikasi)	Muhandislik-qidiruv ishlari xulosasiga binoan.
12	Obyektning asosiy ko‘rsatkichlari va binoning funksional maqsadiga qo‘yiladigan talablari.	<p>Loyiha asnosida mavjud binoni zamonaviy mahalla qo‘mitasiga moslab rekonstruksiya qilish, mini futbol maydonchasi tashkil etish, ayvon, bolalar maydonchasi, vorkaut maydonchasi tashkil etish, 2 ochkoli hojatxona, yong‘inga qarshi suv havzasi va shit, yengil avtomobillar uchun parkovka tashkil etilsin.</p> <p>1. Mahalla fuqarolar yig‘ini va maishiy xizmat binosi: Bino o‘lchamlari 17.90 x 15.07 m (o‘qdan o‘qgacha). Binoda tashkil etilishi kerak bo‘lgan xonalar:</p> <ul style="list-style-type: none"> - xoll; - rais xonasi; - sektor rahbari xonasi; - xokim yordamchisi xonasi; - yoshlar ittifoqi xonasi; - uchastka inspektori xonasi; - ayollar kengashi; - ayollar kengashi majlislar zali; - ayollar saloni; - arxiv; - koridor; - katta majlislar zali; - omborxona; - elektroshit uchun xona; - isitish tizimi uchun xona. <p>2. Mini futbol maydonchasi: Maydon o‘lchamlari 25.300 x 13.300 m. Maydon atrofi balandligi 7.20 m bo‘lgan to‘rli to‘siq bilan o‘ralsin. Maydon yuzasi sun‘iy qoplama bilan qoplansin. Yo‘lakchalar brischatka bilan qoplansin. Darvozalar 40x40x5 mm li ugoloklardan tayyorlanadi. To‘siqlarni ko‘tarib turuvchi poydevor tsokoli qumshuvoq bilan suvalib, moybo‘yoq bilan bo‘yaladi.</p>

		<p>3. Soya tashkil qilish uchun ayvon: Ayvon "Г" shaklida bo'lib, 18.00 x 18.00 m o'lchamda rejalashtirilsin. Tom bir tomonlama nishab bo'lib, nishablik hovli tomonga olinadi. Ayvonning baland tomoni - 4.20 m, past tomoni – 3.30 m etib belgilansin. Ayvonning old tomon ustunlari sifatida diametri 150 mm bo'lgan metall quvurlar qo'llanilsin.</p> <p>4. Bolalar maydonchasi: Maydon o'lchamlari 13.20 x 6.20 m. Maydon turli bolalar o'yin jihozlari bilan jihozlansin. Maydon qoplamasi sifatida yuvilgan, mayin sariq qum qo'llanilsin. Maydon atrofida orindiqlar va chiqindi qutilari nazarda tutilsin.</p> <p>5. Vorkaut maydonchasi: Maydon o'lchamlari 15.30 x 8.00 m. Maydon turli sport jihozlari bilan jihozlansin. Maydon qoplamasi sifatida yuvilgan, mayin sariq qum qo'llanilsin. Maydon atrofida orindiqlar va chiqindi qutilari nazarda tutilsin.</p> <p>6. Ikki ochkoli hojatxona binosi: Hojatxonaning gabarit o'lchamlari – 3.50 x 2.50 m. Ochkolar sifatida Chasha Genualar o'rnatilsin. Har bir hojatxonada alohida qo'l yuvish rakovinalari o'rnatilsin.</p> <p>7. Yong'inga qarshi suv havzasi va shit: Hududda hajmi 50.0 m³ ga teng bo'lgan, atrof devorlari betonlashtirilgan yo'ng'inga qarshi suv havzasi rejalashtirilsin. Shuningdek tarkibida barcha yo'ng'in sodir bo'lganda ishlatiladigan anjomlari (bolta, chelak, ilgak, qum, oqnetushitel va boshqalar) mavjud bo'lgan shit o'rnatilsin.</p> <p>8. Avtomobillar uchun vaqtincha turish joyi: Hududda bir vaqtda to'planadigan avtomobillar sonidan kelib chiqqan holda avtomobillar turar joyi rejalashtirilsin. Yuza asfalt bilan qoplanib, har bir avtomobil turish joyi chiziqlar bilan ajratilsin.</p>
13	Loyiha yechimlariga qo'yiladigan asosiy talablar	Asosiy ma'lumotlar va talablarning mazmuni
13.1	Arxitektura-qurilish, rejalashtirish va konstruktiv yechimlar, binoni pardoqlashga qo'yiladigan talablar	<p>Rejalashtirish bo'yicha qarorlar binolarning maqsadlariga muvofiq, shuningdek, insolatsiya, shamollatish tizimlari va tabiiy yoritishni hisobga olgan holda o'quv jarayoni texnologiyasini va funksional guruhlashtirishni hisobga olgan holda qabul qilinishi kerak.</p> <p>Tashqi pardoqlash: Fasadlar: sifatli materiallar bilan zamonaviy uslubda va dizaynda ishlab chiqish: - sokol keramogranit; - devor yuzasi suvoq, rangli buyoqlash "travertin"; - bino parapeti metal karkasli "Alukobond" yoki "Tunikabond"; - Fasadni arxitekturaviy bezashda bino tashqi derazalari chetiga penopolistiroli yoki "Febrobeton"li bezaklardan foydalanishni ko'zda tutish; - Binoga kirish qismiga - ayvonli zinalar (asosiy kirish qismiga tambur va panduslarni ko'zda tutish);</p>

		<p>Ichki pardoqlash:</p> <ul style="list-style-type: none"> - Shift – xoll, rais xonasi, sektor rahbari xonasi, xokim yordamchisi xonasi, yoshlar ittifoqi xonasi uchastka inspektori xonasi, ayollar kengashi, ayollar kengashi majlislar zali, ayollar saloni, arxiv, koridor, katta majlislar zali - gipsokarton hamda suvli dispersion bo'yoq bilan bo'yash; - omborxonasi, elektroshit uchun xona, isitish sistemasi uchun xona – yoriqlarni to'ldirish, ohak bilan bo'yash nazarda tutilsin. - Devorlar – barcha xonalar – sayqallangan qumshuvoq, shpaklyovka, suvli dispersion bo'yoq bilan bo'yash (ikki marta); omborxonasi, elektroshit xonasi, isitish tizimi uchun xona – qumshuvoq, oqlash, - Eshiklar – barcha xonalar eshiklari MDF dan, kirish eshigi plastic profilli PVX; - hojatxona eshiklari – alyumin profilli - eshik qulflari zamonaviy, bardoshli va sifatli. - tashqi vitrajlar alyuminiy profildan. - favqulotda yong'in xavfsizligi eshiklar loyihalashda amaldagi yong'in xavfsizligi talablariga muvofiq. - Derazalar--Derazalar, podokonniki bilan ikki kamera oynali PVXdan tayyorlangan; shamollatish tizimi uchun derazalar ochgichlari murakkab mexanizmli yoki fortichkali; - Ichki deraza tokchalari PVX dan - tashqi deraza tokchalari ruhlangan tunukadan; - Tashqi eshiklar o'z maqsadi bo'yicha izolyatsiyalangan . - Pollar - xoll, rais xonasi, sektor rahbari xonasi, xokim yordamchisi xonasi, yoshlar ittifoqi xonasi uchastka inspektori xonasi, ayollar kengashi, ayollar kengashi majlislar zali, ayollar saloni, arxiv, koridor, katta majlislar zali - laminat; - omborxonasi, elektroshit uchun xona, isitish sistemasi uchun xona – betonli styajka.
13.2	Konstrukturaviy yechimlar, yuk ko'taruvchi va tusuvchi konstruksiyalar materiallariga qo'yiladigan asosiy talablar	<ul style="list-style-type: none"> - Loyihalash va konstrukturaviy yechimlarda zamonaviy loyihalash va qurilish tajribasini hisobga olishi kerak. - Barcha konstruksiya va materiallar mavjud standartlar va texnik shartlarga mos kelishi va ekologik toza materiallardan tayyorlanishi kerak. - Loyihani ishlab chiqishda materiallarga minimal ta'sirni hisobga olgan holda texnologik echimlarni qo'llash kerak. - Tanlashda me'moriy jihatdan ekspresiv, texnologik va energiya tejaydigan zamonaviy dizayn va texnologiyalardan foydalanishga e'tibor qaratish kerak. - Loyiha qarorlarini amalga oshirishda mahalliy ishlab chiqarishning muqobil energiya manbalaridan foydalanish kerak. - Binolar konstruksiyalarini favqulotda vaziyatlarda, shu jumladan yong'in va zilzilalarda progressiv buzulishlardan himoyasini ta'minlashni ko'zda tutish.

14	<p>Muhandislik va texnologik jihozlar, muhandislik tarmoqlari bilan ta'minlashni loyihalashga qo'yiladigan asosiy talablar.</p>	<p>- Ta'minot tarmoqlari uchun loyihaviy yechimlar mahalliy ishlab chiqaruvchilarning zamonaviy ilg'or texnologiyalari va uskunaridan foydalanishga yo'naltirilgan bo'lishi kerak.</p> <p>Loyihada quyidagilar ko'zda tutilishi kerak:</p> <p>Elektr tizimi:</p> <ul style="list-style-type: none"> - energiyani tejash uchun harakat sensorli lampalar o'rnatish; - elektr ta'minotining ishonchlilik darajasi bo'yicha - II toifa; - energiya tejash chora-tadbirlar; - binoning elektr yoritish tizimini loyihalashtirishda KMK 2.01.05-98 va KMK 2.04.17-98, shuningdek elektr inshootlarining amaldagi qoidalariga (PUE) muvofiq 3 tarmoqli mis simdan foydalangan holda loyihalash, favqulodda yoritishni ta'minlash. Zazemleniya va zanulenieni ko'zda tutish. Elektr energiyasini hisobga olish uchun elektr energiyasini nazorat qilish va hisobga olishning avtomatlashtirilgan tizimini (ASKUE) ko'zda tutish. <p>Isitish va shamollatish:</p> <p>Binoni isitish tizimini loyihalashtirishda o'zining modulli qozonxonasidan foydalanish. Nasos o'rnatilishi bilan bitta quvurli tizim. Quvur ichidagi suvning sovishini oldini olish uchun quvurlarni issiqlik izolatsiyasini ta'minlash. Quvurlar devor ostida (kanallarida) yashiringan holda amalga oshirilishi kerak. Radiatorlar-bimetallik.</p> <p>Uskunalar, butlovchi qismlar va materiallar ishlab chiqaruvchilari "Buyurtmachi" bilan kelishilgan bo'lishi kerak.</p> <p>Xonadagi havo haroratini hisobini amaldagi me'yoriy hujjatlar talablariga muvofiq belgilash.</p> <p>Ochilish oynalari bo'lgan tabiiy shamollatish. Ta'minot va chiqindi ventilyatsiyasini o'rnatish.</p> <p>Loyihalashda KMK 2.01.18-2000 * ga energiya iste'mol qilishning yangi standartlarini hisobga olgan holda KMK 2.04.05-97 va binolarni loyihalash qo'llanmasining talablariga rioya qiling.</p> <p>Suv ta'minoti va kanalizatsiya:</p> <p>Suv ta'minoti KMK 2.04.01-98 va KMK 2.04.02-97 bo'yicha bajarilishi kerak.</p> <ol style="list-style-type: none"> 1. Ichki sovuq suv ta'minoti polipropilen (PP) asosidagi quvurlardan iborat bo'lishi kerak. Ichimlik suvi ta'minotining magistral quvurlarini shaxtalarda yotqizish kerak. Sovuq suv iste'molchilariga quvur liniyalari va chiqish joylarini yotqizish devor ostida (kanallarida) yashiringan holda amalga oshirilishi kerak. Kirish joyida sovuq suv iste'moli hisoblagichini inobatga olish kerak. 2. Ichki issiq suv ta'minoti tizimi polipropilen (PP) asosidagi quvurlardan tayyorlanishi kerak. Ichki ichimlik suvi ta'minotining magistral quvurlarini yotqizish shaxtalarda amalga oshirilishi kerak. Issiq suv iste'molchilariga quvur liniyalari va chiqish joylarini yotqizish devor ostida (kanallarida) yashiringan holda amalga oshirilishi kerak. Quvur ichidagi suvning sovishini oldini olish uchun quvurlarni issiqlik izolatsiyasini ta'minlash. 3. Ichki suv ta'minoti va ichimlik suvi ta'minotini yong'inga qarshi suv ta'minoti bilan ta'minlash. Agar
----	---	---

tashqi birlashtirilgan kommunal va ichimlik suvi ta'minotidagi bosim yong'inni o'chirish ehtiyojlari uchun etarli bo'lmasa, u holda yong'inga qarshi nasos stantsiyasini ta'minlash. Yong'inga qarshi suv ta'minoti tizimi GOST 10704-91 bo'yicha po'lat quvurlardan yasalgan. Yong'inga qarshi suv ta'minoti tizimining asosiy quvurlarini shahtalarda yotqizish. Binolarda quvurlarni yotqizish oraliq yopmalar ostiga va soxta shipning (podshivnim potolkom) orqasida amalga oshirilishi kerak.

4. Kanalizatsiya tizimi KMK 2.04.01-98 va KMK 2.04.03-97 ga muvofiq amalga oshirilishi kerak. Ichki kanalizatsiya tarmoqlari yuqori quvvat va gigienik xususiyatlarga ega bo'lgan PVX quvurlaridan tayyorlanishi kerak. Kanalizatsiya quvurlarini shahtalarga yotqizish. Kanalizatsiya tarmoqlarini tashqi kanalizatsiya tarmog'iga ulash. Tiqilib qolishi mumkin bo'lgan joylarda kanalizatsiya quvurlarini qayta ko'rib chiqish va tozalash imkoniyatini ta'minlash.

- Hojatxonaning chekka burchagida nishab bilan trap urnatishni inobatga olish, Genuya kosasini pol sathidan bir qadam balandroq o'rnatishni inobatga olish. Yuvinish moslamalarini o'rnatishda bir butunli pol sathidan chiquvchi umivalniklardan foydalanish.

5. Tashqarida tashkillashtirilgan drenajni ko'zda tutish. Drenaj quvurlarini binoning tashqi devorlari bo'ylab yotqizish. Yong'ir suv quvurlari ranglarini tanlashda bino fasad qismi rangiga uyg'unlashgan holda tanlash lozim. Sovuq davrda quvurlarda suvning muzlashini oldini olish maqsadida quvurlarni isitish tizimini ko'zda tutish lozim. Yong'ir suv quvurlarini qalinligi kamida 0,5 mm va diametri kamida 100 mm bo'lgan ruhlangan tunukadan yasalgan quvurlardan tayyorlanishi kerak.

Majmuaviy xavfsizlik tizimi:

Amaldagi me'yor va talablarga muvofiq loyihada binoning yong'in habarlash va ogohlantirish tizimi, videokuzatuv bilan jihozlanishi nazarda tutilishi kerak.

Yong'in o'chirish tizimi:

Loyihalashtirishda amaldagi me'yorlar "Yong'indan himoya qilish tizimlari. Avtomatik yong'indan habarlash va yong'in o'chirish moslamalari"ga muvofiq SHNK 2.04.09-07 "Bino va inshootlar yong'in avtomatikasi" talablari asosida amalga oshirish.

Hisob-kitobga ko'ra nasosli yong'in xavfsizlik idishi (yomkost) ni nazarda tutish.

Kuchsiz tok tizimlari:

Yong'in xavfsizligi talablari SHNK 2.01-04 bo'yicha bajarilishi kerak

15 Energiya samaradorligi

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 02.06.2011 yildagi 161-sonli qaroriga muvofiq ob'ektning energiya samaradorligini oshirish bo'yicha zamonaviy innovatsion yechimlarni taqdim etish. Lampalarni energiyani tejaydigan lampalar, zamonaviy issiqlik izolyatsiya materiallari va ikkita kamerali oynali PVX derazalardan foydalanishni ta'minlash.

16	Atrof-muhitni obodonlashtirish.	Binolardan holi bo'lgan va obodonlashtirish uchun mo'ljallangan maydonini obodonlashtirish va ko'kalamzorlashtirish loyihasini amalga oshirish. Hududda obodonlashtirish ishlarining quyidagi turlarini ta'minlang. - Mahalla binosi hududini perimetri buyicha o'rashda: 1) metall, panjara; 2) balandligi kamida 1,0 m bo'lgan shlakabloklardan; - dam olish joylari; - asfalt yoki beton qoplamali transport yo'llari, shu jumladan yong'in xavfsizlik texnikasi uchun; - piyodalar uchun beton yo'laklar; - hududni tashqi yoritilish tizimi svetodiodli lampa bilan.
17	Atrof muhitni muhofaza qilish	Atrof muhitga ta'sir bayonotlari (ZVOS) loyihasini ishlab chiqish
18	Harakati cheklangan shaxslar uchun yashash sharoitlarini ta'minlash bo'yicha talablar	SHNK 2.07.02-07 ni hisobga olgan holda, harakatlanish imkoniyati cheklangan shaxslar (nogironlar va boshqalar) aholi guruhlari uchun qulay kirishni ta'minlash choralarini ko'rish, nogironlar va harakatlanishi cheklangan shaxslarning ehtiyojlarini hisobga olgan holda loyihalash.
19	Vazirliklar va idoralar bilan muvofiqlashtirish zarurligi to'g'risida ko'rsatma	Loyiha hujjatlarini belgilangan tartibda barcha manfaatdor tashkilotlar bilan kelishish.
20	Namoyish materiallarini tayyorlash	Binoning bosh rejasi va fasadi shuningdek ichki (kabinetlar, yo'laklar, vestibul, zallar) bezak dizayni albomini zamonaviy dizayn elementlaridan foydalangan holda ishlab chiqish.
21	Loyihalash ishlarini bajarishga qo'yiladigan talablar	- loyiha hujjatlari bo'limlari, tarkibi va ularning mazmuni amaldagi me'yoriy-huquqiy bazaga muvofiq bo'lishi kerak; - smeta hujjatlarini tasdiqlangan standartlarga muvofiq rejalashtirilgan qurilish muddatiga to'g'ri keladigan narxlar bo'yicha amaldagi narxlar tartibiga muvofiq ishlab chiqish; - Ish xujjatlari 1 nusxada ekspertizaga topshirish uchun Buyurtmachiga beriladi. Loyihachi tashkilot ekspertiza davomida dizayn echimlarini himoya qilishni ta'minlaydi. Loyiha smeta hujjatlari SHNK 1.03.01-2016 "Korxonalar, binolar va inshootlarni kapital qurish uchun loyiha-smeta hujjatlarini tarkibi, ishlab chiqish, muvofiqlashtirish va tasdiqlash" ga muvofiq buyurtmachiga uch nusxada va elektron shaklda beriladi. Buyurtmachi tasdiqlovchi tashkilotlarning xizmatlari va ekspertizasi uchun haq to'laydi.
23	Qurilishni tashkil etish loyihasini ishlab chiqish (POS)	O'zbekiston Respublikasida amalda bo'lgan qoidalar va qoidalarga muvofiq ishlab chiqiladi.

Buyurtmachi: Navoiy viloyati xokimligi "Yagona Buyurtmachi Xizmati"
Injining kompaniyasi bosh muhandisi

 **S. Turaev**

« KELISHILDI »

LBM XK "Muqayyas group":



 **S. Maxmadmurodov**



Ўзбекистон Республикаси
Қурилиш вазирлиги

№ 2377-4262-bd76-deac-d757-2384-1027
Хужжат яратилинган сана: 2022-06-30
Ариза рақами: 54247869

Хужжат берилган: НАВОИЙ ВИЛОЯТ ХОКИМЛИГИ
КАПИТАЛ ҚУРИЛИШ ИНЖИНИРИНГ КОМПАНИЯСИ
ЖШ ШИР: 204775508

**АРХИТЕКТУРА-РЕЖАЛАШТИРИШ
ТОПШИРИҒИ**

30.06.2022 15:11 й.
1712-1712211-45608 -сон

Лойиҳавий бино (иншоот) тури:	O'z hududidan chiqmagan holda "Navro'z" MFY ma'muriy binosini rekonstruktsiya qilish uchun
Лойиҳавий бино (иншоот)нинг манзили:	Konimex tumani "Navro'z" MFY
Лойиҳавий бино (иншоот)нинг буюртмачиси:	NAVOIY VILOYAT HOKIMLIGI KAPITAL QURILISH INJINIRING KOMPANIYASI

Ушбу архитектура-режалаштириш топшириғи фақат лойиҳалаштириш ишларини амалга ошириш учун ҳуқуқий ҳужжат ҳисобланиб, қурилиш-монтаж ишларини бошлашга асос бўла олмайди. Қурилиш бош бошқармасининг манзили ва телефон рақамлари: Navoiy shahar Zarapetyan ko'chasi 10-уу: 99879 220 50 06

#	Архитектура-режалаштириш топшириқларининг қисмлари	Қисмларнинг мазмуни
1	Архитектура-режалаштириш топшириқларини ишлаб чиқиш учун асос бўлган ҳужжатлар	1. Konimex tumani hokimining "Navro'z" MFY binosini rekonstruktsiya qilish to'g'risidagi 2022 yil 17 iyundagi 112-5-70/22-sonli qarori. 2. Davlat xizmatlari markazining 27.06.2022 yildagi 54247869-son arizasi.
2	Лойиҳалаштириладиган бино ва иншоот (кейинги ўринларда объект деб аталади) ер участкасининг жойлашиши ва бош режада тугган ўрни	a) obyektning rasmiy manzili: Konimex tumani "Navro'z" maxallasi. b) obyekt joylashgan hudud qaysi zonaga mansubligi: Konimex tumani bosh rejasiga asosan. v) obyekt joylashgan hudud muhandislik tarmoqlari bilan ta'minlanganligi: ushbu hudud elektr energiya, tabiiy gaz, ichimlik suvi hamda aloqa muhandislik tarmoqlari bilan ta'minlangan.

3	Лойиҳалаштириладиган объект ҳудудининг табиий-иклим кўрсаткичлари	Loyihalashtirilayotgan obyektning yer uchastkasi tez o'zgaruvchan kontinental iqlim zona iqlim (klimat) hududida joylashgan. Havo xarorati: o'rtacha yillik +16,9 C eng baland harorat +44° C eng past harorat -14° C Iyun-avgust oylarida +27,9° C Dekabr-fevral oylarida -5,6° C Obyekt qurilishini loyixalashtirish jarayonida eroziya (yemirilish), seldan saqlash, suv va shamol eroziyasidan saqlash tadbirlari belgilansin.
4	Лойиҳалаштириладиган объект ер участкасининг геологик ва топографик жиҳатдан ўрганилганлиги	Holatni o'rganish uchun tegishli litsenziyaga ega tashkilotga 1:500 nisbatdagi topoxarita ishlab chiqish uchun buyurtma berish.
5	Лойиҳалаштириладиган объект ер участкасининг чегаралари ҳамда унга туташ объектлар ёки ер участкалари тўғрисида маълумот	Loyihalashtirish uchun tanlangan yer maydoni quyidagicha chegarlangan: Shimol tomonidan - ichki yo'l bilan, Janub tomonidan - noturar-joy binosi bilan, Sharq tomonidan - A379 avtomobil yo'li bilan, G'arb tomonidan - ichki yo'l bilan chegarlangan.
6	«Қизил чизиқлар ва белгилар»	Loyihalashtiriladigan obyekt yer uchastkasining tasdiqlangan chegarasidan chiqmasdan, qurilish chiziqlariga amal qilgan holda loyiha ishlarini olib borilishini ta'minlansin.
7	Архитектура талаблари	Loyihani ishlab chiqishda: a) harakatdagi shaharsozlik me'yor va qoidalarga amal qilinsin; b) aholi punktining tasdiqlangan bosh rejasiga va uning tegishli qismining batafsil rejalashtirish loyihasi qat'iy rioya etib, obyekt atrofidagi mavjud binolarga bog'langan holda yagona arxitektura ko'rinishi (ansambli) tashkil etish lozimligi inobatga olinsin; v) obyektни rekonstruksiya qilish loyihalarini ishlab chiqishni boshlashdan oldin ayrim holatlarda (buyurtmachining talabiga binoan yoki tashqi ko'rinishidan avariya holatining alomatlari mavjud bo'lganida) tegishli litsenziyaga ega bo'lgan loyiha va boshqa tashkilotlarning obyektning holati (konstruksiyalarning chidamlilik) bo'yicha xulosasi olinsin; g) ushbu arxitektura-rejalashtirish topshirig'iga muvofiq buyurtmachi tomonidan ishlab chiqilgan va tasdiqlangan hamda alohida muhim obyektlar bo'yicha viloyat Qurilish bosh boshqarmasi bilan kelishilgan loyiha topshiriqlariga hamda 1:500 nisbatdagi topoxaritada tasdiqlangan chegaralariga amal qilinsin; d) obyektning 1:500 nisbatdagi bosh rejasini loyixalashtirishda loyiha tashkiloti tomonidan qayta ixtisoslashtirilayotgan va rekonstruksiya qilinayotgan bino tushirilgan hamda obyekt atrofiga obodonlashtirish va ko'kalamzorlashtirish ishlari aks ettirilgan, obyektga kirish chiqish yullari va avtomobillar to'xtash joylari tashkil etilishi nazarda tutilsin; j) obyektidagi quyidagi kichik arxitektura shakllari o'rnatilishi nazarda tutilsin: landschaft dizaynida skameyka, besedkalar, tungi tashqi yoritqich chiroqlaridan foydalanilsin.
8	Лойиҳалаштириладиган объект ер участкасида mavjud бино ва иншоотларни бузиш ёки фойдаланиш бўйича таклифлар	Loyihachining loyiha topshirig'iga muvofiq: a) qizil chiziq hududidagi hamda yon atrofiga joylashgan mavjud yer osti va yer usti muhandislik kommunikasiya tarmoqlaridan SHNQ asosida muhofaza zonalarini saqlangan holda loyihalashtirilsin; b) avtomobil yo'llaridan muhofaza zonalarini saqlangan holda loyihalash ishlari olib borilsin; d) qurilish uchun ajratilgan yer uchastkasida buzilishga tushadigan bino va inshootlarga aniqlik kiritilsin; e) qurilish uchun ajratilgan yer uchastkasida mavjud bino va inshootlardan foydalanish bo'yicha takliflar ishlab chiqilsin.

9	Объектни босқичма-босқич куриш	Qurilishning murakkabligiga va buyurtmachi tomonidan beriladigan loyiha topshirig'iga muvofiq qurilishni bosqichma-bosqich olib borish va foydalanishga topshirish jarayonlari nazarda tutilishi mumkin.
10	Ер майдонини ободонлаштириш ва кўкаламзорлаштириш	Loyihaning obodonlashtirish va ko'kalamzorlashtirish qismida quyidagilar inobatga olinadi: a) obyekt joylashadigan hududda iqlim sharoitlarini inobatga olgan holda manzarali daraxtlar, butalar va gullar ekish; b) tegishli hududlari ko'kalamzorlashtirilganligi; v) landshaft arxitekturasining yechimlaridan foydalangan holda daraxtlarning qanday shakllarda bo'lishi; g) mavjud ko'p yillik daraxtlarning saqlanib qolishi.
11	Санитария-гигиена талаблари	Tuman DSEOM xulosasi olinsin. a) loyihalashtirishda sanitariya-gigiyena talablariga rioya etish; b) loyihalashtirish jarayonida qurilish materiallari turlarini belgilashda Sog'liqni saqlash vazirligi tomonidan taqiqlanmagan va sanitariya-gigiyena talablariga javob beradigan qurilish materiallaridan foydalanilishi shartligi ko'zda tutish; v) obyekt qurilishi uchun tanlangan yer maydonidan oqib o'tuvchi kanal yoki ariq mavjud bo'lgan taqdirda, loyihadagi suv yo'nalishi hamda suvning muhofaza zonalarini saqlash va qirg'oqlarni obodonlashtirish va mustahkamlash ishlari loyihalashtirish jarayonida inobatga olish.
12	Ёнғиндан сақланиш талаблари	Tuman FVV xulosasi olinsin. Obyekt "Binolar va inshootlarning yong'in xavfsizligi" ShNQ 2.01.02-04 ga asosan loyihalashtirish.
13	Экология талаблари	Davlat ekologik ekspertizasi hulosasi olinsin. Loyihalashtirishda ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish me'yorlariga amal qilinsin.
14	Лойиҳани келишиш	Loyiha arxitektura-rejalashtirish topshirig'iga muvofiqligiga O'zbekiston Respublikasi Yagona interaktiv davlat xizmatlari markazi orqali quyidagilar bilan kelishilsin: viloyat Qurilish bosh boshqarmasi huzuridagi hududiy arxitektura-shaharsozlik kengashi bilan — tarixiy zonalarda, shu jumladan madaniy yodgorliklarning qo'riqlash zonalarda quriladigan obyektlarning hamda davlat obyektlarining loyihalari; bevosita viloyat Qurilish bosh boshqarmasi bilan — boshqa obyektlarning loyihalari. Kelishish uchun elektron shaklda quyidagi hujjatlar taqdim etilsin: 1) loyihaning arxitekturaga oid qismi (tushuntirish xati (tushuntirish xatida loyiha-smeta hujjatida yong'in xavfsizligiga, sanitariya-epidemiologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish qoidalariga rioya etish bo'yicha va boshqa yo'nalishlarda bajarilgan ishlar aks ettiriladi)); 2) bino va inshootning fasadlari, qavatlar rejaları, qurilish obyektining bosh rejasi. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining «Markazlashtirilgan investitsiyalar hisobidan moliyalashtiriladigan loyiha ishlari va investitsiya loyihalarini takomillashtirish uchun qo'shimcha choralar haqida» 2016 yil 22 yanvardagi 15-son qaroriga 2-ilovada (Murakkablik toifasi bo'yicha obyektlar klassifikatsiyasi) keltirilgan III toifalarga mansub obyektlarning loyiha-smeta hujjatlarini bevosita o'zlari sanitariya-epidemiologiya va yong'inga qarshi nazorat xizmatlari hamda ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish organlari bilan kelishadilar; Qurilish hajmi 300 kub metrdan ortiq bo'lmagan obyektlarni bevosita o'zlari tuman (shahar) qurilish bo'limlari bilan kelishadilar.

15	Қўшимча талаблар	Loyihani kelishish davomida Qoraqalpog‘iston Respublikasi Qurilish vazirligi, viloyatlar va Toshkent shahar qurilish bosh boshqarmalari yoki ular huzuridagi hududiy arxitektura-shaharsozlik Kengashlari yoki tuman (shahar) qurilish bo‘limlari tomonidan berilgan tavsiyalar va ekspertiza xulosasida ko‘rsatilgan kamchiliklarni bartaraf etish. Qonunchilik hujjatlari talablariga muvofiq: qurilish jarayonida belgilangan tartibda loyiha tashkiloti tomonidan obyektga mualliflik nazoratini olib borishni ta‘minlash; loyiha-smeta hujjatlarini ekspertizadan o‘tkazish; davlat qurilish nazorati amalga oshirilishi shart bo‘lgan obyektlarda qurilish-montaj ishlarini boshlash uchun obyektning ro‘yxatdan o‘tkazish.
----	-------------------------	---

Муҳандислик тармоқларига уланиш шартлари:

16	Ичимлик сув тармоғи	Texnik shart buyurtmachi tomonidan loyihachi tashkilotiga taqdim etilsin.
17	Оқава сув тармоғи (канализация)	Texnik shart buyurtmachi tomonidan loyihachi tashkilotiga taqdim etilsin.
18	Электр тармоғи	Texnik shart buyurtmachi tomonidan loyihachi tashkilotiga taqdim etilsin.
19	Газ тармоғи	Texnik shart buyurtmachi tomonidan loyihachi tashkilotiga taqdim etilsin.
20	Телефон алоқа тармоғи	Texnik shart buyurtmachi tomonidan loyihachi tashkilotiga taqdim etilsin.
21	Иссиқлик ва иссиқ сув тармоғи	Texnik shart buyurtmachi tomonidan loyihachi tashkilotiga taqdim etilsin.
22	Дренаж тармоғи	Loyihachi tomondan loyihalash jarayonida inobatga olinsin.
23	Объектни муҳандислик тармоқларига уланиш бўйича буюртмачига ва лойиҳа ташкilotига қўйилаётган талаблар	Obyektning muhandislik tarmoqlariga ulash tartib-taomillarini belgilovchi amaldagi qonunchilik hujjatlari talablariga rioya etilishini ta‘minlash. Obyektga ulanadigan yer osti va yer usti muhandislik tarmoqlari unga chegaradosh o‘zga yer uchastkasidan o‘tkaziladigan holatlarda muhandislik tarmoqlarining trassalari ushbu yer uchastkalariga egalari bilan kelishish. Obyektga tegishli yer uchastkasi hududidan o‘tgan yer osti va yer usti muhandislik tarmoqlari ko‘chirilishi (zarurat bo‘lganda) loyihada inobatga olish. Obyektga ulanadigan yer osti muhandislik tarmoqlarini yotqizishda ko‘chalarni kesib o‘tishni mutasaddi tashkilotlar bilan kelishish.
24	Архитектура-режалаштириш топшириғининг амал қилиш муддати	Ushbu ART berilgan sanadan boshlab ikki yil davomida amal qiladi.

Архитектура-режалаштириш топшириғини ишлаб чиқиш бўлими раҳбари:	v.v.b Oydinov Shoxruz Ilhomiddin o'g'li
Архитектура-режалаштириш топшириғини тайёрлаган мутахассис:	Махмаражабов Даврон Ҳиммат о'г'ли

АРТ лойиҳаолди ҳужжат бўлиб, ер участкаси ёки бино ва иншоотга мулк ҳуқуқини тасдиқламайди ҳамда қурилиш-монтаж ишларини бошлаш учун асос ҳисобланмайди.

OYDINOV SHOXRUZ ILXOMIDDIN O'G'LI

Мазкур ҳужжат Вазирлар Маҳкамасининг 2017 йил 15 сентябрдаги 728-сон қарорига мувофиқ Ягона интерактив давлат хизматлари порталида шакллантирилган электрон ҳужжатнинг нусхаси бўлиб, давлат органлари томонидан ушбу ҳужжатни қабул қилишни рад этишлари қатъиян тақиқланади. Ҳужжат ҳақиқийлигини gero.gov.uz веб-сайтида ҳужжатнинг ноёб рақамини киритиб ёки мобил телефон ёрдамида QR- кодни сканер қилиш орқали текшириш мумкин.



Табий газ билан газлаштириш лойиҳасини ишлаб чиқариш ва газ таъминотига улаш учун
(Улгуржи истеъмолчилар учун)
ТЕХНИК ТАВСИЯНОМА

№ 29/2022

“02” июл 2022й.

1. Истеъмолчи номи: “Навруз” МФЙ биносини газлаштириш
2. Фаолият тури: Махалла фуқаролар йиғини
3. Манзили: “Навруз” МФЙ
4. Газ қувурига уланиш жойи ҳаракатдаги ер усти, урта босим
5. Уланиш нуктасидаги урта босимли газ қувурига диаметри: д-40
6. Уланиш нуктасига бўлган масофа 20 п/м,
7. Соатлик газ истеъмоли сарфи: 3,2
8. Газ жиҳозлари:

1. “GENUS PREMIUM SUSTEM” иситиш қозони
2. OSTEH Г-6 газ улчагич (регулятори билан)

-1 (бир) дона
-1(бир) дона

9. Газ тақсимлаш пункти (ГТП) қуриш зарурлиги _____
10. Табий газни ёнилғи сифатида фойдаланувчи истеъмолчилар қуз-қиш мавсумида 3 ой давомида эҳтиёжини қоплайдиган муқобил ёкилғи захираси ва ҳаво ҳарорати пасайган даврларда технологик жараёни узлуксиз равишда муқобил ёкилғида ишлашига мослашган бўлиши шарт.
11. Қиш мавсумида аҳоли ва ижтимоий соҳа объектлари табиий газ таъминотида танқислик кузатишган даврда бошқа истеъмолчиларнинг табиий газ таъминотига қафолат берилмайди.
12. Лойиҳалаштириш ва газлаштириш ишлари буюртмачи ҳисобидан амалга оширилади.
13. Лойиҳа ишлари махсус руҳсатномага эга бўлган ваколатли лойиҳалаш корхоналари томонидан амалдаги ШНК талаблари доирасида ишлаб чиқилиши, шунинг мавжуд истеъмолчилар ва истиқболни инobatга олиши шарт.
14. Табиий газдан асосий ёкилғи тури сифатида фойдаланишнинг аниқ даври (ойлар бўйича) _____;
15. Лойиҳа қуйидаги шартлар бажарилсин:
- а) газ тармоғининг бўлиниш чегараси кўрсатилиб, бўлиниш чегарасида “Ўзстандарт” агентлиги электрон манзилнинг ўлчов воситалари давлат реестрига киритилсин ва яшил ранг билан белгиланган ўлчов воситасини ўрнатиш;
 - б) уланиш нуктасидаги табиий газнинг максимал соатлик, қунлик, йиллик сарфи ва ишчи босими, шунингдек ушбу босимнинг ўзгариш чегаралари;
 - в) замонавий сертификатланган энергиятежамкор ва фойдали иш қуввати юкори бўлган газ жиҳозлар ва ёндирғичларни ўрнатиш; газдан фойдаланиш усқунаси ва газ горелкали қурилмаларга қуйиладиган талаблар (тури ва сони) мувофиқлик сертификатининг мавжудлиги;
 - г) газ тақсимлаш шахобчаси (кейинги ўринларда ГТШ деб аталади) иншоотни қуриш зарурлиги, ГТШга бўлган техник талаблар, автоматика тури, газ қувурлари сони ва уларнинг хар биридаги табиий газ босими, чиришдан ҳимоялаш чора тадбирлари ва бошқалар;
 - д) қўшимча газ қувурларини қуриш ишлари;
 - е) захира ёкилғидан фойдаланиш даврини кўрсатган ҳолда, захира ёкилғи хўжалигини қуриш зарурлиги;
 - ж) газ жиҳоз ўрнатиладиган хонада газосигнализатор усқунасини ўрнатиш;
 - з) электрокимёвий ёки проектор қурилма ўрнатиш (ер ости газ қувури қурилган бўлса);
 - и) табиий газни ёкилғи сифатида фойдаланувчи истеъмолчиларга қуз-қиш мавсумида 3 ой давомида эҳтиёжини қоплайдиган муқобил ёкилғи захираси ва технологик жараёни автоматик равишда муқобил ёкилғида ишлашини қоплайдиган муқобил ёкилғи захираси ва технологик жараёни автоматик равишда муқобил ёкилғида ишлашини таъминлаш.
16. Газ тармоқларига улаш лойиҳаси газ тармоқларини қуриш ва улардан фойдаланиш бўйича берилган техник шартга мувофиқ ишлаб чиқилиб, лойиҳачи томонидан “Худудгаз Навоий” МЧЖ да рўйхатдан ўтказилиши шарт.
17. Йилига 100 000 ва ундан ортик куб.метр табиий газдан битта усқуна учун ёкилғи сифатида фойдаланувчи юридик шахслар газ хўжалигининг мавсумий ва узок муддат ишловчи газ истеъмоли объектларини ишга тушириш учун руҳсатномалар Саноат Ҳавфсизлиги Қўмитаси ва “Ўзнетфегазинспекция” томонидан конун ҳужжатларида белгиланган тартибда берилди, ушбу руҳсатномаларсиз газдай фойдаланиш усқунасига газ бериш тақиқланади.
18. Газлаштириш техник шартнинг амал қилиш муддати берилган қундан бошлаб икки (2) йилни ташкил қилади. Белгиланган муддат ўтган, агар истеъмолчи газлаштиришни тугатмаган бўлса, газлаштириш учун янги техник шарт олиниши лозим.
19. Техник шарт Вазирлар Маҳкамасининг 2018 йио 12 январдаги 22-сон ва 2018 йил 31 мартдаги 256-сон ҳамда 2019 йил 16 мартдаги 226-сонли қарорлари доирасида ишлаб чиқилди.

Бош муҳандис

Газ қувурларидан комплекс
фойдаланишни назорат қилиш
бўлими бошлиғи

М.Батиров
(09.03.03)

А.Хафизов

“HUDUDIY ELEKTR TARMOQLARI”

Aksiyadorlik jamiyati
**“NAVOIY HUDUDIY ELEKTR
TARMOQLARI KORXONASI”**
Aksiyadorlik jamiyati



Joint-stock company

**“HUDUDIY ELEKTR
TARMOQLARI”**

Joint-stock company
**“NAVOIY HUDUDIY ELEKTR
TARMOQLARI KORXONASI”**

Indeks:210109. Navoiy shahar, Nizomiy ko'chasi-22, e-mail: navoietk@umail.uz, tel.:(79) 224-30-21, faks: (79) 224-3351
“O'zsanoatqurilishbank” Navoiy mintaqaviy filiali, h/r: 20210000900306363001, MFO 00207, OKED 35120, STIR 200002553

“29” 06 2022 у.

№ 4/3123

«Ягона буюртмачи хизмати» ИК
директори А.Турдиевга
Конимех ЭТК бошлиғи Н.Шониязовга
"Ўзэнергоинспекция" Навоий
худудий бўлими бошлиғи
Б. Шомуродовга

Конимех тумани “Наврўз” МФЙ худудида Маҳалла биносини қуриш объекти бўйича электр таъминоти тўғрисида

ТЕХНИК ШАРТЛАР

Конимех тумани “Наврўз” МФЙ худудида Маҳалла биносини қуриш объекти бўйича электр таъминоти, умумий электр энергия истеъмол қуввати 18,4 кВт, электр энергия таъминоти ишончлилиги бўйича III-тоифага мансуб истеъмолчини электр энергия таъминоти қуйидаги техник шартлар бажарилган ҳолда амалга оширилиши мумкин:

1. Объектни электр таъминоти учун алоҳида 0,4 кВли қириш-таркатиш қурилмалар ўрнатилсин. Қурилмалар тури, ўрнатилиш жойлари лойиҳада аниқлансин.
2. Лойиҳалаштирилаётган 0,4 кВли қириш-таркатиш қурилмаларининг электр таъминоти, 35/10 кВли «Конимех» подстанциядан чиқувчи 10 кВли «Совхоз» шаҳобчасидан таъминланган “Наврўз” МФЙ худудидаги қуввати 160 кВА бўлган КТП-52-сонли трансформатор пунктларидан чиқувчи 0,4 кВли ҳаво электр узатиш тармоғининг 16-сонли таянчидан лойиҳа асосида улансин.
3. Лойиҳалаштирилаётган 0,4 кВли қириш-таркатиш қурилмасидан, КТП-52-сонли трансформатор пунктдан чиқувчи 0,4 кВли ҳаво электр узатиш тармоғининг 16-сонли таянчигача 0,4 кВли кабель электр узатиш тармоқлари қурилсин. Тармоқлар узунлиги ва ўтказгич тури лойиҳада аниқлансин.
4. Объектни қуриш даврида 0,4-6/10/35/110/220 кВли ҳаво ва кабель электр узатиш тармоқлари муҳофазаси, Вазирлар Маҳкамасининг 2018 йил 26 декабрдаги 1050-сонли қарори билан тасдиқланган “Электр тармоғи хўжалиги объектларини муҳофаза қилиш қоидалари” талабларига қатъий риоя қилинсин.
5. Қуриладиган объектлар худудига тушган ҳаво ва кабель электр узатиш тармоқлари ҳамда электр қурилмалари “Электр тармоғи хўжалиги объектларини муҳофаза қилиш қоидалари”нинг 3-боб 31-бандига асосан: “Электр тармоғи хўжалиги объектларини қайта қуриш ва кўчириш электр тармоғи хўжалиги объектлари эгалари билан келишилган техник шартлар бўйича, ишларни бажарувчилар, асосий қурилишни ёки ишни амалга оширувчи ер участкалари эгалари, ердан фойдаланувчилар, ер эгалари ҳисобига амалга оширилиши”- белгиланганлиги ҳисобга олинсин.
6. Объектни ёритиш мақсадида энерготежамкор светодиодли лампалардан, ҳаракатли датчиклардан фойдаланилсин.
7. Пудратчи ташкилот томонидан маҳалла б биносининг том қисмида қуёш панеллари ва қуёш сув иситиш коллектор қурилмаси ўрнатилсин.
8. Лойиҳалаштирилаётган 0,4 кВли қириш-таркатиш қурилмаларида электр энергиясини ҳисобга олиш ва назорат қилишнинг автоматлаштирилган (АСКУЭ) тизими билан бирга ишлай оладиган «Ўзстандарт» агентлигининг рўйхатидан ўтган электрон ҳисоблаш приборлари билан жиҳозланиши таъминлансин. Электрон ҳисоблаш приборлари алоҳида металл шкафда ўрнатилсин.
9. Ишга туширишдан олдин электр энергия етказиб бериш бўйича "Навоий ХЭТК" АЖ билан шартнома тузилсин.

Техник директор

О. Райимов



O'ZSUVTA'MINOT

"Navoiy suv ta'minoti" MCHJ
Konimex tuman bo'limi



04.04.2024 № 01-20/382

Навоий вилояти
"Ягона буюртмачи хизмати"
ИК рахбари А.Турдиевга.

"Навоий сув таъминоти" МЧЖ Конимех туман бўлими Сизнинг 2022 йил 29-июнь №01-07/1752-сонли хатингизга жавобан, Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 2014 йил 15 июлдаги 194-сонли қарори билан тасдиқланган низомда назарда тўтилган ҳолатларни инобатга олиб, Конимех туман "Наврўз" маҳалла биносини реконструкция қилиш мақсадида ичимлик сув тармоғига улаш учун.

ТЕХНИК ШАРТ

1. Конимех туман "Наврўз" маҳалла биносини реконструкция қилиш мақсадида ичимлик сув тармоғига улаш учун.
2. Конимех тумани бўлими балансидаги сув қувурларини химоя зонасини сақланган ҳолда қурилиш ишлари олиб боришига ичимлик сувига уланишга руҳсат берилади.
3. Йўлнинг кесиб ўтган қисмига метал футлар ўрнатиш ҳамда ичимлик суви учун 10м³ темир бетон колодец қопқоғи билан қурилади ва электрон сув ҳисоблагич ўрнатиш ҳамда сув вакуум насоси қуриш талаб этилади. "Навоий сув таъминоти" МЧЖ Конимех туман бўлими билан шартнома тузиш талаб этилади.
4. Қурилаётган темир бетон колодец ДСЭНМ ва бошқа талабларга жавоб бериши шарт.
5. Уланиши вақтида "Навоий сув таъминоти" МЧЖ Конимех туман бўлими ходимлари бўлиши талаб этилади.
6. Сув ўлчагич асбоби "Навоий сув таъминоти" МЧЖ Конимех туман бўлими ходимлари томонидан пломбаланиши лозим.
7. Техник шартнинг амал қилиш муддати 2 (икки) йил.

"Навоий сув таъминоти" МЧЖ
Конимех туман бўлими ИЧТБ бошлиғи:

О.Ниязбаев